# NEMISCHA TILSHUNOSLIKKA OID LUG‘AT TUZISH PRINSIPLARI

**Ahmadova Zilola Otabek qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili) yo‘nalishi talabasi

Staj. o’qituvchi: **Yuldasheva A.**

(ahmadovazilola014@gmail.com)

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada nemis tilshunosligiga oid terminologik lug‘atlarni tuzishning nazariy va amaliy asoslari keng yoritiladi. Termin va terminologiya tushunchalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning tilshunoslikdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, terminologik lug‘atlarning shakllanishi, ularning turlari va zamonaviy lingvistik tadqiqotlardagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada terminologik lug‘at tuzish jarayonida qo‘llaniladigan asosiy ilmiy prinsiplarga alohida e’tibor qaratiladi.

**Kalit so’zlar**: Termin, terminologiya, lug‘atshunoslik, ilmiy atamalar, definitsiya, ekvivalentlik, standartlashuv, kontekst

**Abstract:** This article examines the theoretical and practical principles of compiling terminological dictionaries in German linguistics. It discusses the nature of terms and terminology and highlights their role in linguistic studies. The paper also explores the structure, types, and significance of terminological dictionaries in modern research. Special attention is given to the main principles used in compiling such dictionaries.

**Keywords**: Term, terminology, lexicography, scientific vocabulary, definition, equivalence, standardization, context

Maxsus leksika hamda muayyan faoliyat sohasiga oid lug‘aviy birliklar majmui terminologiya fanining markaziy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda maxsus leksika deganda biron-bir fanga tegishli bo‘lgan terminlar va ularga tenglashtirilgan

barqaror birikmalar tushuniladi. Tilshunos olim A.Reformatskiy terminlarni maxsus vazifa bajaruvchi so‘zlar sifatida tavsiflasa, A.V.Kalinin kasb-hunar va fan sohalariga xos lug‘at boyligini ikki yirik guruhga ajratishni taklif etadi. Uning yondashuviga ko‘ra, birinchi guruhni qat’iy ilmiy tu shunchalarni ifodalovchi terminlar tashkil etsa, ikkinchi guruhga yarim rasmiy xarakterdagi professionalizmlar kiritiladi. Termin va professionalizm o‘rtasidagi tub farq ularning rasmiylik darajasida namoyon bo‘ladi, ya’ni termin muayyan sohada qonunlashtirilgan, qat’iy ilmiy ta’rifga ega bo‘lgan tushuncha nomi bo‘lsa, professionalizm ko‘proq jonli so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladigan va aniq nazariy asosga ega bo‘lmagan birlikdir. Terminologiyaning asosiy o‘rganish obyekti maxsus so‘zlar, maxsus leksika sanaladi. Maxsus leksika deganda ma’lum bir sohaga tegishli lug‘aviy birlik va ularga tenglashgan birikmalar tushuniladi. Adabiyotlarda lingvistik terminologiya, fizik terminologiya deb ham yuritiladi. A.Reformatskiy bu xususda shunday yozadi: «... terminlar bu maxsus so‘zlardir »[1]. Terminologiya tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda muayyan fan sohasi yoki kasbiy faoliyatga oid atamalar tizimi sifatida talqin etilib, u kasbiy leksikaning o‘zagini tashkil etadi. Tadqiqotchi Axmanova terminologiyani muayyan ishlab chiqarish tarmog‘i yoki bilim sohasidagi atamalar majmui deb ta’riflagan bo‘lib, u leksikaning ongli ravishda tartibga solinadigan alohida sektori hisoblanadi. Atamalar kasbiy til leksikasining belgilangan qismini ifodalaydi hamda bir ma’nolilik, aniqlik va lo‘ndalik kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Fan sifatida o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida shakllangan terminologiyaning ilmiy natijalari atamalarni standartlashtirish va me’yorga solishga xizmat qiladi[2]. Felber kabi olimlar tomonidan ta’kidlanganidek, terminologik me’yorlash jarayoni atamalarni ilmiy jihatdan belgilash, ularga ta’rif berish va rasmiy me’yor sifatida e’lon qilishdan iboratdir. Bu jarayon bitta tushunchaga bir necha atama yoki bitta atamaga bir necha tushuncha birikib qolishining oldini olish hamda noto‘g‘ri shakllangan atamalarning muomalaga kirib qolishiga yo‘l

[1] Reformatskij A. A. Was sind Termin und Terminologie. – Fragen der Terminologie. – Moskau, 1961. – S. 52.

[2] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С. 45.

qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Agar professional atama o‘zining xos xususiyatlarini yo‘qotib, umumiste’mol tiliga o‘tsa, bu jarayon determinologizatsiya deb ataladi va natijada atama ko‘p ma’nolilik hamda ekspressivlik xususiyatlariga ega bo‘ladi [3].

Zamonaviy ilm-fan rivojlanib borayotgan sharoitda har bir sohada maxsus ilmiy terminlarning soni ortib bormoqda. Bu esa ularni tartibga solish, izohlash va tizimlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, tilshunoslik sohasida terminologik tizimlar juda muhim o‘rin egallaydi, chunki ular ilmiy fikrni aniq va bir xil shaklda ifodalash imkonini beradi. Nemis tilshunosligi terminologik jihatdan juda rivojlangan sohalardan biri hisoblanadi. Undagi terminlar tizimi nafaqat nemis tilida, balki boshqa tillarda ham ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, terminologik lug‘atlarni yaratish va ularning tuzilish prinsiplari ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilishi lozim. Tushunchalar iyerarxiyasida terminlar bilan bir qatorda otlarlar ham muhim o‘rin tutadi. Otlar asosan ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki xususiy tushunchalarning nomlarini ifodalasa, terminlar doimo umumiy va nazariy tushunchalar tizimi bilan bog‘liq bo‘ladi. Terminologik tizimning shakllanish jarayonida qadimgi terminlar va termin oidlar kabi o‘tish shakllari ham kuzatiladi. Qadimgi terminlar yangi kashf etilgan tushunchalarni vaqtincha nomlash uchun xizmat qilib, ular shakliy barqarorlik va stilistik neytrallik kabi xususiyatlarga hali ega bo‘lmaydi. Vaqt o‘tishi bilan bunday birliklar yo qat’iy terminlarga aylanadi yoki iste’moldan chiqib ketadi. Shuningdek, fanlar tizimi shakllanguniga qadar mavjud bo‘lgan va hunarmandchilik kabi sohalarda qo‘llanilgan prototerminlar ham borki, ularning ko‘pchiligi keyinchalik ilmiy nazariyalar doirasida qayta ishlanib, zamonaviy terminologiya tarkibiga kirgan[4].

Terminologiya – bu asosan kasb-hunar yoki ilmiy soha tiliga oid bo‘lib, ma’lum bir sohaga xos, o‘ziga xos ma’noga ega so‘zlar va mutaxassislik atamalarining to‘liq majmuini anglatadi. Turli ilmiy sohalarda (tibbiyot, zoologiya, botanika, kimyo va boshqalar)

[3] Felber H. Terminologie in Theorie und Praxis. – Bonn: Infoterm, 1984. – S. 25.

[4] Grinev S. V. Einführung in die Terminologielehre. – Moskau: Moskovskij Licej, 1993.

terminologiya o‘sha sohaning lug‘aviy bazasini tashkil qiladi. Terminlar ko‘pincha yangi so‘z birikmalarini shakllantirish, neytral birliklar orqali izohlash va turli chet tillardan o‘zlashtirish orqali yaratiladi. Shu bilan birga, terminlar xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solinadi. Termin– bu terminologiyaning asosiy birligi bo‘lib, texnik yoki kasbiy so‘z, atama sifatida ishlatiladi. Biror ilmiy sohaning terminlari quyidagi xususiyatlarga ega: Ular kasbiy yoki ilmiy tilga xos so‘zlar yoki birikmalar bo‘lib, oddiy kundalik til yoki boshqa tillardan olingan bo‘lishi mumkin. Ular yangi yaratilgan bo‘lishi va ilmiy kontekstda o‘z ma’nosini aniq belgilash orqali ishlatiladi. Terminlar turli ilmiy sohalarda bir xil yoki o‘xshash atama sifatida ishlatilishi mumkin, lekin har bir sohada u o‘ziga xos, aniq belgilangan ma’noga ega bo‘ladi. Shu tarzda, terminologiya ilmiy izlanish va muloqotning asosiy vositasini tashkil etadi va sohadagi so‘z boyligi va tushunchalarni tizimli ravishda birlashtiradi[5].

Termin ilmiy yoki kasbiy sohada aniq bir tushunchani ifodalovchi maxsus til birligi hisoblanadi. U oddiy so‘zdan farqli ravishda faqat bitta ma’noni ifodalaydi va kontekstdan mustaqil ravishda tushunilishi mumkin. Terminlarning asosiy vazifasi ilmiy muloqotni aniq va tushunarli qilishdan iboratdir. Terminologiya esa ma’lum bir soha terminlarining yig‘indisi va ularni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishdir. U terminlarning qanday shakllanishi, rivojlanishi va amaliyotda qanday qo‘llanishini o‘rganadi. Terminologiya tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, ilmiy fikrlashning aniqligini ta’minlaydi. Terminologik tizim ilmiy sohada qo‘llaniladigan terminlarning o‘zaro bog‘langan va tartiblangan majmuasidir. Bu tizimda har bir termin boshqa terminlar bilan mantiqiy va semantik aloqada bo‘ladi.

Nemis tilshunosligida terminologiyaning rivojlanishi umumiy lingvistik nazariyalarning takomillashuvi bilan uzviy aloqadorlikda kechgan. Dastlabki bosqichlarda filologik va grammatik tahlillar doirasida yuzaga kelgan terminlar keyinchalik mustaqil ilmiy tushunchaga aylandi. XIX asrning mashhur nemis olimlari, jumladan, Franz Bopp

[5] Brock Haus. Enzyklopädie. - Leipzig-Mannheim: F.A. Brockhaus, 2006.-S. 220.

va August Shleyxerlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqotlari natijasida morfologik va fonetik hodisalarni ifodalovchi terminlar tizimlashtirila boshlandi. Vilgelm von Humboldtning tilni doimiy harakatdagi faoliyat sifatida talqin qilishi terminlarning ham alohida elementlar emas, balki yagona tizim qismlari sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. XX asrga kelib nemis terminologiya maktabi mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda avstriyalik olim Eugen Vyusterning xizmatlari beqiyos bo‘lib, u terminologiyani mustaqil fan darajasiga olib chiqdi va terminlarni xalqaro miqyosda standartlashtirish nazariyasini ishlab chiqdi. Vyusterning konseptual yondashuviga ko‘ra, terminologik ishlar so‘zlardan emas, balki tushunchalar tizimidan boshlanishi kerak[6]. Tilshunoslikda - tilning lug‘at boyligi bo‘lib, u grammatika, ya’ni tilning qoidalar tizimidan farq qiladi. Generativ grammatikada grammatika “til tizimi” sifatida tushuniladi va leksikon grammatikaning shunday tarkibiy qismi hisoblanadiki, unda har bir so‘z o‘zining fonologik, morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari bilan birgalikda keltiriladi. Hozirgi davrda ushbu komponentning ahamiyati tobora ortib bormoqda, ayniqsa, kompyuter lingvistikasi sohasidagi qo‘llanishlar nuqtai nazaridan leksikografiya - lug‘at yoki leksikon tuzish va yozish jarayonini ifodalovchi atama bo‘lib, shuningdek, lug‘at va leksikonlarni yaratish nazariyasi hamda metodologiyasini ham anglatadi[7].

Terminologik lug‘atlar muayyan ilmiy soha terminlarini jamlab, ularning ma’nosini izohlovchi yoki boshqa tilga tarjima qiluvchi manbalardir. Ular ilmiy bilimlarni tartibga solish va saqlashda muhim vosita hisoblanadi.Bunday lug‘atlar ilmiy muloqotni yengillashtiradi, chunki ular terminlarning yagona va aniq tushunilishini ta’minlaydi. Terminologik lug‘atlar yordamida mutaxassislar turli sohalardagi ilmiy ma’lumotlarni tez va aniq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar.

[6] Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik. Berlin: VDI-Verlag, 1931, S. 34–45.

[7] Henne H. Semantik und Lexikographie. – Berlin: De Gruyter, 1972. – S. 85.

Nemis tilshunosligi terminologiyasining strukturaviy va semantik tabiatini o‘rganish zamonaviy germanshunastlikning eng dolzarb nazariy masalalaridan biri hisoblanadi. Terminologik birliklar oddiy leksik qatlamdan nafaqat o‘zining referensial aniqligi, balki o‘ziga xos morfologik qurilishi va semantik sig‘imi bilan ham farqlanadi. Nemis tili o‘zining flektiv-sintetik imkoniyatlari tufayli ilmiy tushunchalarni maksimal darajada aniq va tizimli ifodalashga qodir. Bu jarayonda nemis tili nazariyotchilari Lothar Hoffmann va Thorsten Roelcke ta’kidlaganidek, "til iqtisodiyoti" (Sprachökonomie) va "axborot zichligi" (Informationsdichte) prinsiplari asosiy o‘rin tutadi. Ya’ni, terminologik tizim minimal til shakli orqali maksimal ilmiy axborotni tashuvchi struktura sifatida shakllanadi[8].

Terminologik lug‘at tuzishda bir qator ilmiy prinsiplarga amal qilinadi. Birinchi navbatda terminlarni tanlash prinsipi muhim bo‘lib, bunda faqat dolzarb va ilmiy jihatdan muhim terminlar tanlab olinadi. Bu jarayonda terminlarning qo‘llanish darajasi va ularning soha uchun ahamiyati inobatga olinadi. Keyingi muhim bosqich tartiblash prinsipi hisoblanadi. Unda terminlar odatda alifbo tartibida yoki tematik guruhlarga ajratilgan holda joylashtiriladi. Bu foydalanuvchiga kerakli terminni tez topish imkonini beradi. Definitsiya berish prinsipi esa har bir termin uchun aniq, qisqa va ilmiy asoslangan ta’rif berilishini talab qiladi. Bunday ta’riflar terminning mohiyatini to‘liq ochib berishi lozim. Ekvivalentlik prinsipi tarjima lug‘atlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda bir tildagi termin boshqa tilga mazmunan mos shaklda tarjima qilinadi. Bu jarayonda faqat so‘zma-so‘z tarjima emas, balki mazmuniy moslik ham muhim hisoblanadi. Kontekstual prinsip terminlarning amaliy qo‘llanishini ko‘rsatish uchun misollar keltirishni nazarda tutadi. Bu foydalanuvchiga terminni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Standartlashuv prinsipi esa terminlarning yagona shaklda qo‘llanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda bir xillikni saqlashga xizmat qiladi.

[8] Wüster E. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und Terminologische Lexikographie. – Wien: Springer, 1979. – S. 45.

Terminologik lug‘at tuzish jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi. Ular orasida terminlarning ko‘p ma’noliligi, yangi terminlarning tez paydo bo‘lishi va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, ayrim hollarda terminlarni standartlashtirish ham murakkab jarayon bo‘lishi mumkin. Nemis tilshunosligi terminologiyasining strukturaviy asosi nemis tilining flektiv va sintetik imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tizimda eng yetakchi xususiyat sifatida murakkab so‘z yasalishi yoki kompozitsiya hodisasini ko‘rsatish mumkin. Nemis tili o‘zining cheksiz kompozitsion quvvati bilan boshqa tillardan ajralib turadi va bu holat tilshunoslik terminlarining katta qismini tashkil etadi. Ko‘pgina terminlar ikki yoki undan ortiq mustaqil o‘zakning birikishidan hosil bo‘ladi va bu jarayonda tushunchaning ham jinsi ham uning o‘ziga xos belgisi bitta so‘z shaklida birlashadi. Strukturaviy tahlil shuni ko‘rsatadiki bunday terminlarda birinchi komponent aniqlovchi vazifasini o‘taydi va ikkinchi komponent bilan ifodalangan umumiy tushuncha ma’nosini qat’iy chegaralaydi. Bu esa nemis ilmiy matnlarida tushunchaviy aniqlikni va axborotning maksimal darajada zich bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan Wortbildung yoki Satzbau kabi terminlar tilning mantiqiy tuzilishini juda qisqa va aniq shaklda ifoda etadi[9].

Bugungi kunda terminologik lug‘at tuzishda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Korpus lingvistika, elektron bazalar va sun’iy intellekt tizimlari terminlarni tahlil qilish va tartibga solishda muhim yordam bermoqda. Bu esa lug‘at tuzish jarayonini yanada tez va samarali qiladi.

**Xulosa**: Xulosa qilib aytganda, nemis tilshunosligiga oid terminologik lug‘atlarni tuzish murakkab va ilmiy asoslangan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda qo‘llaniladigan prinsiplarga amal qilish lug‘at sifatini belgilaydi. Terminologik lug‘atlar ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va ularni kelajak avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

[9] Bergenholtz H., Tarp S. Manual of Specialised Lexicography. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – S. 72.

1. Reformatskij A. A. Was sind Termin und Terminologie. – Fragen der Terminologie. – Moskau, 1961. – S. 52.

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С. 45.

3. Felber H. Terminologie in Theorie und Praxis. – Bonn: Infoterm, 1984. – S. 25.

4. Grinev S. V. Einführung in die Terminologielehre. – Moskau: Moskovskij Licej, 1993.

5. Brock Haus. Enzyklopädie. - Leipzig-Mannheim: F.A. Brockhaus, 2006.-S. 220.

6. Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik. Berlin: VDI-Verlag, 1931, S. 34–45.

7. Henne H. Semantik und Lexikographie. – Berlin: De Gruyter, 1972. – S. 85.

8. Wüster E. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und Terminologische Lexikographie. – Wien: Springer, 1979. – S. 45

9. Bergenholtz H., Tarp S. Manual of Specialised Lexicography. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – S. 72.